

AQLI ZAIF O'QUVCHILARDA TABIATSHUNOSLIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Dilnora Azizova

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta'lim fakulteti, Oligofrenopedagogika kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada aqli zaif o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishda tabiiy fanlarni o'qitishning o'rni va ahamiyati tahlil etilgan. Yurtimizda ekologik barqarorlikni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalariga qaratilayotgan e'tibor maxsus ta'lim tizimida ham o'z aksini topmoqda. Maqolada aqli zaif o'quvchilarga ekologik ta'lim berishning mazmuni, usullari va amaliy ahamiyati yoritilib, ularning tabiat va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlikni anglashlari, ekologik va huquqiy ongni rivojlantirish, tabiatni asrashga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish yo'nalishlari tahlil qilingan. Shuningdek, tabiiy fan darslari orqali o'quvchilarda hayot xavfsizligi, gigiyena, mehnat, estetik va vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog'liq bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishning ahamiyati asoslab berilgan. Aqli zaif o'quvchilarda tabiatshunoslik kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlari ta'lim muhitining ta'limiy, tarbiyaviy, ijtimoiy-madaniy, moslashuvchan vazifalarini korreksion ta'lim amaliyoti bilan uyg'unlashtirish.

Kalit so'zlar: aqli zaif o'quvchilar, ekologik ta'lim, tabiatshunoslik, ekologik madaniyat, tabiiy fan, ekologik ong, atrof-muhitni muhofaza qilish, maxsus ta'lim, ekologik tarbiya, vatanparvarlik.

Аннотация: В статье анализируются роль и значение преподавания естественных наук в формировании экологической культуры умственно отсталых учащихся. Уделяемое в нашей стране внимание обеспечению экологической устойчивости, охране окружающей среды и рациональному использованию природных ресурсов находит свое отражение и в системе коррекционного образования. В статье освещаются содержание, методы и практическое значение экологического образования умственно отсталых учащихся, анализируется их понимание связи природы и общества, развитие эколого-правового сознания и формирование позитивного отношения к охране природы. Обосновывается важность формирования у учащихся знаний, умений и компетенций в области безопасности жизнедеятельности, гигиены, труда, эстетического и патриотического воспитания на уроках естествознания. Возможности формирования естественнонаучных компетенций умственно отсталых учащихся.

заклучаются в сочетании образовательных, воспитательных, социокультурных, адаптивных задач образовательной среды с практикой коррекционного образования.

Ключевые слова: умственно отсталые учащиеся, экологическое образование, естествознание, экологическая культура, естествознание, экологическое сознание, охрана окружающей среды, специальное образование, экологическое воспитание, патриотизм.

Annotation: *This article analyzes the role and importance of teaching natural sciences in the formation of ecological culture in mentally retarded students. The attention paid in our country to ensuring ecological sustainability, environmental protection, and rational use of natural resources is also reflected in the special education system. The article highlights the content, methods, and practical significance of providing ecological education to mentally retarded students, analyzes their understanding of the connection between nature and society, the development of ecological and legal awareness, and the formation of a positive attitude towards nature conservation. It also substantiates the importance of developing knowledge, skills, and competencies related to life safety, hygiene, labor, aesthetic, and patriotic education in students through natural science lessons. The possibilities of forming natural science competencies in mentally retarded students are to combine the educational, educational, socio-cultural, adaptive tasks of the educational environment with the practice of correctional education.*

Keywords: *mentally retarded students, environmental education, natural science, ecological culture, natural science, ecological awareness, environmental protection, special education, ecological education, patriotism.*

Yurtimizda atrof-muhitni muhofaza qilishga, ekologik barqarorlikni ta'minlashga, chiqindilarning aholi uchun salbiy ta'sirini kamaytirishga, tabiiy boyliklarimizdan samarali foydalanishga, hamda sanitariya va ekologik holatni yaxshilashga yo'naltirilgan tizimli va kompleks tadbirlar muntazam ravishda amalga oshirilmoqda.

O'quv dasturlariga ekologiyaga doir bilimlar kiritilib, aqli zaif o'quvchilarda ham ekologik madaniyat, ong va huquqiy savodxonlik shakllantirilmoqda. Xususan, maxsus maktablarda tabiiy fanlar darslari orqali aqli zaif o'quvchilarning atrof-muhit haqidagi tushunchalarini kengaytirish, shuningdek, tabiat, inson va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'lanishni anglashga qaratilgan ta'limiy yondashuvlar tatbiq etilmoqda. Aqli zaif o'quvchilarda tabiatga, atrofda bo'layotgan barcha hodisalar (harakatlar, voqealar, hayotiy vaziyatlar)ga bo'lgan ongli (g'amxo'rlik, parvarish, asrash, to'g'ri va o'rinli foydalanish, ishlab chiqarishda maqsadli ishtirok etish.)

munosabatni shakllantirishdan oldin ularni atrof-muhit haqida (tabiat va undagibarcha jonli va jonsiz narsalar haqidagi) dastlabki-elementar bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish lozim. Aqli zaif o'quvchilar ta'lim jarayoniga qamrab olinmasdan avval atrof-muhit haqidagi bilimlari yetarli bo'lmaydi. Shu sababli, tabiiy fanlarni o'qitish nafaqat ularning atrofdagi olamga oid tasavvurlarini kengaytiradi, balki so'z-mantiqiy tafakkurini, nutqini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Mazkur fandan ta'lim berishda hayot xavfsizligi asoslari, yo'l harakati qoidalari ham o'quv mazmunining ajralmas qismi sifatida belgilangan. Mazkur darslarning asosiy vazifasi – aqli zaif o'quvchilarga o'z atrofidagi predmetlar, tabiat hodisalari va ularning xususiyatlarini tanishtirish, shu sohadagi bilimlarini tizimli ravishda kengaytirish hamda atrofdagi voqealarni to'g'ri nomlash va ularni tushunishga yordam berishdan iboratdir. Shuningdek, aqli zaif o'quvchilarni tabiat va jamiyatdagi hodisalar ahamiyatini anglashga, hayotda muhim bo'lgan ijtimoiy-me'yoriy qoidalarga amal qilishga o'rgatish ham ushbu fan vazifalariga kiradi. Ta'lim jarayonida ma'naviy-axloqiy, huquqiy, gigiyenik, iqtisodiy, estetik, jismoniy, ekologik va mehnat tarbiyasi bilan bog'liq tushunchalarni shakllantirish ishlariga alohida e'tibor qaratiladi. Aqli zaif o'quvchilar o'z salomatligi, yaqinlarining farovonligi, shuningdek, mehnatga bo'lgan mas'uliyatli munosabatni anglab yetishga yo'naltiriladi. Bundan tashqari, ular yashayotgan hudud — mahalla, tuman, viloyat va butun Respublikaga oid ramzlar, iqlim, mashhur shaxslar va joylar haqidagi ma'lumotlar orqali Vatan mohiyatini anglashga yo'naltiriladi.

Tabiiy fan tabiiy-ilmiy yo'nalishdagi o'quv predmetlari tarkibiga kirib, u tabiat va tabiiy resurslardan foydalanish, ularni muhofaza qilish bo'yicha inson faoliyati haqidagi boshlang'ich tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu fan orqali o'quvchilarda amaliy mashg'ulotlar asosida tabiatga nisbatan ongli munosabat, Vatanga mehr va atrof-muhitni asrash zarurati haqida tushunchalar rivojlanadi. Tabiatning jonsiz qismlarini ifloslanish, eroziya va degradatsiyadan saqlash, hayvonot va o'simlik dunyosini muhofaza qilish, inson salomatligini ta'minlashda ekologik muvozanatni saqlash fanning muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Ushbu predmetni o'qitish orqali o'quvchilarda butun Yer sayyorasini asrab-avaylash hissi uyg'onadi, ular tabiatni muhofaza qilish bo'yicha sodda amaliy faoliyatlarni bajarish ko'nikmalarini hosil qiladilar. Shuningdek, darslar davomida o'quvchilarga o'z yurtining tabiiy hodisalari va jismoniy obyektlari haqida dastlabki ma'lumotlar beriladi, inson bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar oddiy misollar asosida tushuntiriladi. Tabiatdan oqilona foydalanish va uni asrashga doir inson faoliyatiga oid bilimlar orqali bolalarda ekologik madaniyat, estetik va etik qarashlar, mehnatsevarlik va vatanparvarlik ruhini shakllantirish ko'zda tutiladi.

Shuningdek, tabiatshunoslik kursi aqli zaif o'quvchilarning avvalgi sinflarda olgan bilimlarini chuqurlashtirish, mavjud tushunchalarni kengaytirish, tabiat va

jamiyat o'rtasidagi bog'liqlikni anglash hamda shaxsiy munosabatni shakllantirish imkonini beradi. Ekologik ta'lim maqsadlari asosida ushbu fan inson faoliyatining tabiatga bo'lgan ta'sirini tushuntirishni muhim vazifa sifatida belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan, imkoniyati cheklangan bolalar uchun tabiatshunoslik fanini o'qitishda ularning bilim, ko'nikma va amaliy tajribalariga mos holda tabiatga oid kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2023 yil 31 maydagi PF-81-son farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori.
3. Афанасьева Р.А. Умственное воспитание дошкольников с нарушениями интеллекта в процессе ознакомления с явлениями и объектами неживой природы. дис.... канд. пед. наук. – М., 2016.
4. Po'latova P. Maxsus maktablarda ekologik ta'lim-tarbiyaning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa-ijodiy uyi, 2009.
5. Po'latova P. Maxsus pedagogika. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa-ijodiy uyi, 2005.